

YURIDIK TA'LIMDA KLASTERLASH TIZIMI: KONSEPSIYA, MODELLARI VA PRINSIPLARI

*Aminov Dalerjon Alisher-o'g'li,
Buxoro Davlat Universiteti o'qituvchisi;
Mail: daleraminov554@mail.ru*

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarida yurisprudensiya sohasida zamonaviy talablariga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlash masalasi tobora dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Yuridik ta'lim tizimi, avvalo, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga, talabalar kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga hamda huquqiy xizmatlar sohasida innovatsion g'oyalarni tatbiq etishga yo'naltirilmoqda. Shu yo'nalishda keyingi yillarda huquqiy ta'limning rivojlanishida klaster modellari joriy etila boshlandi.

Dastlab "klaster" atamasi iqtisodiy nazariyada qo'llanilib, jahon olimlaridan M. Porter tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan¹. Uning ta'rificha, klaster -muayyan hudud yoki sohada o'zaro bog'liq ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatish tarmoqlari, ta'lim va ilmiy muassasalarning yagona ekotizimda samarali hamkorlik qilishi asoslangan modeldir. Iqtisodiyotda klasterlash raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsiyalar joriy etish va resurslardan samarali foydalanish imkonini berdi. Bu g'oyaning ta'lim sohasiga, xususan, yuridik ta'limga moslashtirilishi muhim konseptual ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy sharoitda huquqshunoslar tayyorlash jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan chekshanmay, balki amaliy ko'nikmalar, huquqiy xizmat ko'rsatishda innovatsion yondashuvlar hamda davlat va jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladigan malakali kadrlarni yetishtirishni talab etmoqda.

Yuridik ta'limda klasterlash tizimida ushbu yondashuv huquq ta'limida sifatni oshirish, talabalarni real kasbiy muhitga tayyorlash, ularning kompetensiyalarini chuqurlashtirish bilan bir qatorda raqamli huquq (digital law), intellektual mulk huquqi, xalqaro investitsiya huquqi kabi yangi yo'nalishlarda zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatini yaratadi. Bugungi kunda ushbu model ta'lim tizimida ham keng tatbiq etilmoqda, xususan O'zbekistonda 2020-yildan boshlab klaster tushunchasi birinchi marta huquq ta'limida ishlatalishi aynan Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son farmonida aks ettirilgan².

Tadqiqotlardan shu ko'rindiki, klasterlashning asosiy jihatlari quyidagilarda ko'rindi:

- ✓ Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish;

¹ Porter, M. E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. **Harvard Business Review**

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 29-apreldagi PQ-5987-sonli "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida""gi qarori. — <https://lex.uz/docs/4812493>

- ✓ Sud, prokuratura, advokatura va boshqa huquqni qo'llash organlari bilan hamkorlik;
- ✓ Talabalarni amaliyotga yo'naltirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- ✓ Yuridik xizmatlar va innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda ilm-fan, ta'lim va amaliyot birligi;
- ✓ Yangi yo'nalishlar (masalan, raqamli huquq, kiberxavfsizlik, islomiy moliya huquqi) bo'yicha mutaxassislar tayyorlash.

Ya'ni, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, **huquq ta'lim klasteri** — bu oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, sud-huquq organlari, yuridik klinikalar va boshqa hamkor institatlarning o'zaro integratsiya asosida faoliyat yuritish tizimidir. Aynan ushbu tizimning huquq ta'limidagi ahamiyati zamonaviy hamda bozor talablariga javob beradigan kadrlar yetishtirishda tarmoqlarning birlashuvi nazarda tutiladi. Shuningdek, u ta'lim muassasalari, sud-huquq amaliyoti organlari, advokatura va notariat, shuningdek amaliyotchi huquqshunoslar o'rtasidagi samarali integratsiya va hamkorlik asosida kadrlar tayyorlash jarayonini uyg'unlashtirishdir. Shu tariqa, iqtisodiyotda o'zini oqlagan klaster modeli ta'limda ham yuqori natijalar berishi mumkin, chunki u nazariya va amaliyot birligini ta'minlaydi, talaba va mutaxassislarning kompetensiyalarini zamonaviy talablariga mos ravishda rivojlantiradi.

Bugungi kunda yuridik ta'lim sohasida turli mamlakatlarda klasterlash jarayoni o'ziga xos shakllarda namoyon bo'lmoqda. Har bir mintaqaga o'zining ijtimoiy-huquqiy sharoiti, davlat boshqaruvi tizimi va ta'lim siyosatidan kelib chiqib, yuridik ta'limni rivojlantirishda alohida modelni shakllantirgan. Jumladan, dunyo tajribasida bir necha yuridik ta'lim klaster modellari shakllangan:

- **AQSh modeli** – universitetlar qoshidagi yuridik klinikalar orqali amaliyotga yo'naltirilgan tizim³.
- **Yevropa modeli** – davlat organlari bilan bevosita integratsiyalashgan, sud-prokuratura bilan majburiy amaliyot dasturlari mavjud.
- **Osiyo modeli (Janubiy Koreya, Yaponiya)** – Osiyo mamlakatlarida, xususan Janubiy Koreya va Yaponiyada, klasterlash jarayoni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan⁴. Talabalar elektron platformalarda huquqiy jarayonlarni o'rGANADILAR, korporativ yuristlar bilan hamkorlik qiladilar. Bu modelning ustunligi – huquqshunoslar nafaqat huquq, balki IT va biznes sohasida ham tayyorlanishidir.

Shu bilan birga O'zbekistonda ham huquq ta'limi va amaliyotini integratsiyalashda o'zimizning foydalanayotgan model mavjud. Bu model AQSh va Yevropa tajribasi uyg'unlashtirilgan holda: bir tomonidan yuridik klinikalar faoliyati

³ <https://www.reuters.com/legal/government/aba-plan-boost-law-students-hands-on-experience-spurs-criticism-about-accreditor-2025-05-20>

⁴ <https://english.kookmin.ac.kr/kookmin/newsplus/336>

yo‘lga qo‘yilgan, ikkinchi tomondan sud va prokuratura organlari bilan talabalar amaliyoti tizimi kengaytirilgan.

Har bir institut o‘zining faoliyatini belgilovchi tamoyillarga ega bo‘lgani kabi, yuridik ta’limda klasterlash tizimi ham ma’lum asosiy prinsiplarga tayangan holda samarali faoliyat yuritishi mumkin. Quyidagi tamoyillarni biz ushbu tizimning poydevori sifatida e’tirof etishimiz lozim deb topamiz:

1. Integratsiya – nazariya va amaliyot uyg‘unligi, oliv ta’lim muassasalari va huquqni qo‘llash institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash⁵.

2. Moslashuvchanlik – ta’lim dasturlarini mehnat bozorining ehtiyojlariga tezkor moslashtirish, yangi huquqiy yo‘nalishlarni (masalan, raqamlı huquq, moliya huquqi) joriy etish imkoniyati.

3. Innovatsionlik – huquqiy ta’lim jarayonida raqamlı platformalar, sun’iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.

4. Shaffoflik va hamkorlik – xalqaro tajriba almashish, davlat va nodavlat tashkilotlar, advokatura va notariat tizimlari bilan hamkorlik qilish

5. Barqarorlik – ta’lim va amaliyot o‘rtasida uzlusiz aloqani yo‘lga qo‘yish, talabalar va o‘qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish tizimini yaratish>.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har bir davlat yuridik ta’limda klasterlash tizimini o‘zining ijtimoiy, siyosiy va huquqiy sharoitidan kelib chiqqan holda shakllantiradi. AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlari modellari qator ustunliklarga ega bo‘lsa-da, ularni to‘liq ko‘chirib olish emas, balki boy tajribasidan foydalanib milliy sharoitga moslashtirish muhimdir. O‘zbekiston uchun yuridik ta’limda **milliy klasterlash modelini yaratish** dolzarb masala hisoblanadi. Bunday modelda quyidagilarga alohida e’tibor qaratilishi lozim:

- yuridik klinikalar va oliv ta’lim muassasalari faoliyatini kuchaytirish;
- sud, prokuratura va boshqa huquqni qo‘llash organlari bilan majburiy hamkorlikni kengaytirish;
- xalqaro tajriba va innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- milliy qadriyatlar va huquqiy an’analarni inobatga olish.

Demak, yuridik ta’limda milliy klasterlash modelining ishlab chiqilishi nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki O‘zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning ilmiy-huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuridik ta’limda klasterlash tizimi bugungi kunda nazariya va amaliyot birligini ta’minlash bilan bir qatorda, huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim konseptual mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, AQSh modeli – amaliyotga yo‘naltirilganligi, Yevropa modeli – davlat organlari bilan integratsiyalashgani, Osiyo modeli esa – innovatsion yondashuvlari bilan ajralib turadi. O‘zbekiston tajribasida esa ushbu modellarning

⁵ Porter, M. E. (1998). *Clusters and the New Economics of Competition*. Harvard Business Review, 76(6), 77–90.

ijobiy jihatlari uyg‘unlashtirilib, milliy huquqiy ta’limning o‘ziga xos klasterlash tizimini shakllantirish va uni yanada takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yuridik ta’limda klasterlash tizimini rivojlantirish huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Jahon tajribasidan olingen ijobiy jihatlarni inobatga olgan holda, O‘zbekistonda milliy klasterlash modelini yaratish va uni uzlusiz takomillashtirish zarur. Bunda integratsiya, moslashuvchanlik, innovatsionlik, shaffoflik va barqarorlik kabi asosiy prinsiplarga tayanish lozim. Ana shu yondashuv yuridik ta’lim sifatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash va milliy huquqiy tizimni xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanimanligan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 29-aprel PQ-5987-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida””gi qaror
2. Porter, M. E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. **Harvard Business Review.** URL: <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>

Internet manbalar:

1. www.lex.uz
2. www.hbr.org
3. www.reuters.com
4. www.english.kookmin.ac.kr